O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

«XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI YASHIL VA INNOVATSION IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA BARQAROR RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI»

MAVZUSIDAGI
XALQARO ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI

TO‘PLAMI

(III QISM)



SAMARQAND

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

TAMBOV DAVLAT UNIVERSITETI

QARSHI MUXANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI

«IPAK YO‘LI» TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO UNIVERSITETI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI SAMARQAND FILIALI

«XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI YASHIL VA INNOVATSION IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA BARQAROR RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI»

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MATERIALLARI TO‘PLAMI

(III QISM)

2026-yil 20-21-fevral kunlari

SAMARQAND – 2026

МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАТSIЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

САМАРКАНДСКИЙ ИНСТИТУТ ЭКОНОМИКИ И СЕРВИСА

ТАМБОВСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

КАРШИНСКИЙ ИНЖЕНЕРНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ТУРИЗМА И КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ «ШЕЛКОВЫЙ ПУТЬ»

САМАРКАНДСКИЙ ФИЛИАЛ ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

“НАПРАВЛЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ НА ОСНОВЕ ПРИНЦИПОВ ЗЕЛЕНОЙ И ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ”

МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ

СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ

(ЧАСТЬ III)

(20-21-февраль 2026 г.)

САМАРКАНД – 2026

UO’K: 338.2:004(082)
I-52
KBK: 65.7

Xizmat ko‘rsatish sohasini yashil va innovatsion iqtisodiyot tamoyillari asosida barqaror rivojlantirish yo‘nalishlari */xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (III qism). 2026 йил 20-21-fevral kunlari. Samarqand, SamISI, 2026. – 282 bet.*

Nashr uchun mas’ul:
M.Q.Pardayev – iqtisod fanlari doktori, professor

Tahririyat kengashi rahbari:
M.E.Po‘latov – iqtisod fanlari doktori, professor

Tahririyat kengashi a’zolari:
M.M.Muxammedov – iqtisod fanlari doktori, professor,
J.R.Zaynalov – iqtisod fanlari doktori, professor,
I.S.Tuxliev – iqtisod fanlari doktori, professor,
O.Murtazaev – iqtisod fanlari doktori, professor,
R.X.Ergashev – iqtisod fanlari doktori, professor,
V.I.Abdukarimov – iqtisod fanlari doktori, professor,
N.A.Ibragimov – iqtisod fanlari doktori, professor,
K.B.Urazov – iqtisod fanlari doktori, professor,
Q.J.Mirzaev – iqtisod fanlari doktori, professor,
A.Eshtaev – iqtisod fanlari doktori, professor,
S.N.Tashnazarov – iqtisod fanlari doktori, professor,
A.N.Xoliqulov – iqtisod fanlari nomzodi, professor,
D.H.Xolmamatov– iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.
Sahifalovchi: Firdavs O‘roqov

An’anaviy ilmiy-amaliy konferensiya materiallarida xizmatlar sohasini yashil va innovatsion iqtisodiyot tamoyillari asosida barqaror rivojlantirish muammolari va ularning yechimlari, sohaning alohida tarmoqlari samaradorligini oshirish istiqbollariga oid masalalar yoritilgan barqaror iqtisodiy rivojlanish va xizmat ko‘rsatish sohasini yashil va innovasion iqtisodiyot tamoyillari asosida jadal rivojlantirishning nazariy va metodologik muammolari va ularni hal qilishning strategik yo‘nalishlari, kambag‘allikni qisqartirish, aholi bandligi, farovonligi, yashash darajasi va sifatini oshirish masalalari, hududlarda barqaror iqtisodiy o‘sish va aholi farovonligini oshirish jarayonida marketing va menejment imkoniyatlarini takomillashtirish masalalari, xizmat ko‘rsatish sohasini yashil va innovasion iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘sish va aholi farovonligini oshirishda investisiyalarni jalb qilish va moliyaviy munosabatlarni takomillashtirish masalalari, hududlarda barqaror iqtisodiy o‘sish va aholi farovonligini oshirishda buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit muammolarini bartaraf qilish masalalari, xizmat ko‘rsatish sohasini yashil va innovatsion iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashni takomillashtirish muammolarini hal qilishga qaratilgan ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarga boy maqola va tezislar o‘rin olgan.

Maqolalar mualliflar tahririda bosilmoqda. Ularda keltirilgan raqamlar, faktlar, xulosa va tavsiyalarga mualliflar mas’ul. Ularning ayrim fikrlari tashkiliy guruh qarashlariga to‘g‘ri kelmasligi mumkin.

ISBN: 978-9910-225-40-6

© SamISI, 2026 y.

To'rtinchidan, segment moliyaviy ko'rsatkichlarini baholashda qo'shilgan marja, segment marjasi va segment rentabelligi kabi ko'rsatkichlar ishlatiladi. Segment marjasi segment samaradorligini baholashning eng mos ko'rsatkichi, chunki u faqat segment nazorati ostidagi xarajatlarni hisobga oladi.

Beshinchidan, zamonaviy raqamli texnologiyalar - ERP tizimlari, AI, BI platformalari - segment hisobotini avtomatlashtirish va takomillashtirishga katta imkoniyatlar yaratadi. Bu texnologiyalar real vaqt tahlili, aniqlikni oshirish va qaror qabul qilishni tezlashtirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 8-son MHXS “Operatsion segmentlari”. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari jamg'armasi, 2024.

2. 1-son BHXS “Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish”. IASB, 2023.

3. Kaplan R.S., Anderson S.R. Time-Driven Activity-Based Costing: A Simpler and More Powerful Path to Higher Profits. Harvard Business Review Press, 2007.

4. Horngren C.T., Datar S.M., Rajan M.V. Cost Accounting: A Managerial Emphasis. 16th Edition. Pearson, 2020.

5. Drury C. Management and Cost Accounting. 10th Edition. Cengage Learning, 2018.

6. Grant Thornton. 8-SON MHXS - Segment Information to be Disclosed. Global Accounting Advisory, 2022.

7. FASB ASC 280. Segment Reporting. Financial Accounting Standards Board, 2023.

8. Cooper R., Kaplan R.S. The Design of Cost Management Systems. 2nd Edition. Prentice Hall, 1999.

9. Shirinov U.A., Hamidov D. Korxonalarda segmentar hisobni takomillashtirish // “Ekonomika i sotsium”. – 2023. – №6(109).

10. Alikulov G‘olibjon. Segmentar va moliyaviy hisobot tuzishda xo‘jalik yurituvchi subyektlar mulkini baholashning metodologik muammolari // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot (maxsus son). – 2024. – Aprel. – B. 435

Raximov Xoshim Amirkulovich – *TDIU SF mustaqil tadqiqotchisi*

SUG‘URTA XIZMATLARINI KO‘RSATUVCHI SUBYEKTLARDA XARAJATLARNI HISOB OBYEKTI SIFATIDAGI TASNIFI VA TAVSIFI

Annotatsiya: *Maqolada sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatuvchi subyektlarda xarajatlarni xalqaro standartlar asosida tan olish, ularni buxgalteriya schyotlarida aks ettrish va buxgalateriya o’tkazmalarida rasmiylashtirish hamda buxgalteriya hisobotlarda aks ettrish masalalari yoritilgan.*

Kalit so’zlar: *sug’urta, xarajat, xalqaro standartlar, buxgalteriya hisobi, hisobot, sug’urta tannarni, ma’muriy xarajat.*

Аннотация: *В статье рассматриваются вопросы признания расходов в организациях, предоставляющих страховые услуги, на основе международных стандартов, их отражения в бухгалтерской отчетности и формализации бухгалтерских операций, а также их отражения в бухгалтерских отчетах.*


Ключевые слова: *страхование, себестоимость, международные стандарты, бухгалтерский учет, отчетность, страховая компания, административные расходы.*

Abstract: *The article discusses the issues of recognizing expenses in entities providing insurance services based on international standards, their reflection in accounting accounts and formalization in accounting transactions, and their reflection in accounting reports.*

Keywords: *insurance, cost, international standards, accounting, reporting, insurance company, administrative expenses.*

Sug‘urta xizmatlari zamonaviy bozor iqtisodiyotining ajralmas qismi sifatida moliyaviy barqarorlikni ta’minlash, xavf-xatarlarni kamaytirish va aholining ijtimoiy himoyasini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Sug‘urta xizmatlari mamlakat iqtisodiyotida mulkni, jismoniy va yuridik shaxslarni turli xatarlardan muhofaza qilish orqali faoliyat yurituvchi sub’ektlar ishonchini oshiradi va investitsiya muhitini yaxshilaydi. Bu sohadagi barqarorlik mamlakatning moliyaviy xavfsizligini ta’minlashda asosiy omillardan biridir.

Jahon bank ma’lumotlariga ko‘ra, 2023 yilda dunyo bo‘yicha sug‘urta mukofotlari umumiy hajmi 7,1 trillion dollarga yetgan. O‘zbekistonda esa 2022 yil yakuniga ko‘ra, sug‘urta tashkilotlari tomonidan yig‘ilgan mukofotlar hajmi 3,5 trln so‘mni tashkil etgan. 2023 yilda bu ko‘rsatkich 4,1 trln so‘mga yetdi, bu esa 17% o‘sishni anglatadi. Mamlakatimizda sug‘urta bozori hali to‘liq shakllanmagan bo‘lsa-da, uning o‘sish sur’ati yildan-yilga ortib bormoqda: 2020-2022 yillar davomida umumiy sug‘urta bozori 37% o‘sishni namoyon qildi. Iste’molchilarda sug‘urta madaniyati ortib borayotgani, sohaga davlat tomonidan berilgan imtiyozlar va huquqiy islohotlar natijasida mazkur yo‘nalish yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.




1-rasm. Osiyo davlatlarida sug‘urta sektori faoliyati.[59]

[59] Муаллиф ишланмаси.

Yuqoridagi rasm Osiyo davlatlarida sug‘urta sektori faoliyatini taqqoslaydi. E’tiborga loyiq jihatlar:

- **Xitoy va Yaponiya** sug‘urta mukofotlari bo‘yicha mintaqadagi yetakchilar (800 mlrd va 450 mlrd AQSh dollari).
- **Sug‘urta to‘lovlari ulushi** eng yuqori Yaponiya va Xitoyda bo‘lib, bu mamlakatlarda sug‘urta qoplamalari samarador ishlayotgani va foydalanuvchi ishonchi yuqoriligini anglatadi.
- **O‘zbekiston** bu ko‘rsatkichlar bo‘yicha hali past darajada turibdi, ammo xarajatlar tuzilmasi jihatdan boshqa rivojlanayotgan davlatlar bilan o‘xshashlik bor.



2-rasm. 2023-yilda O‘zbekiston sug‘urta tashkilotlarida xarajatlar tarkibi.[60]

Ushbu diagrammada 2023-yilda O‘zbekiston sug‘urta tashkilotlarida xarajatlar qanday taqsimlangani ko‘rsatilgan. Eng katta ulush – **42%** to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta to‘lovlariga to‘g‘ri keladi, bu esa kompaniyaning asosiy funksiyasi – xavf-hatarni qoplashga katta e’tibor qaratilganini ko‘rsatadi. Ma’muriy xarajatlar va agentlik to‘lovlari ham muhim ulushni tashkil etmoqda.

Har qanday xo‘jalik yurituvchi sub’ekt borki ma’lum bir faoliyat bilan shug‘ullanish uchun xarajatlarni amalga oshiradi. Xarajatlar korxona faoliyatidagi eng asosiy buxgalteriya hisobining ob’ektlaridan biri bo‘lib hisoblanadi, chunki korxona foydasi u amalga oshirgan xarajatlarga bog‘liqdir.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda yuqori daromadlilikka erishish uchun xarajatlar tarkibini optimallashtiriz zarur. Xarajat tushunchasi haqida turli adabiyotlarda turlicha fikrlar keltirilgan.

Moliyaviy hisobotning konseptual asosi (MHXS)ga asosan “**Xarajatlar** – bu aktivlarning chiqib ketishi yoki kamayishi yohud majburiyatlarning paydo bo‘lishi shaklida iqtisodiy nafning hisobot davridagi pasayishidir, va ushbu pasayish kapitalning egalariga taqsimlanadigan summalar bilan bog‘liq bo‘lmagan kamayishiga olib keladi” deb ta’rif keltirilgan.

[60]Муаллиф ишланмаси.

Soliq Kodeksining 305-moddasi 2-ikkinchi xat boshida quyidagicha ta’rif keltirilgan “...soliq to‘lovchi tomonidan O‘zbekiston Respublikasida ham, uning hududidan tashqarida ham hisobot (soliq) davri davomida amalga oshirilgan (ko‘rilgan), asoslangan va hujjatlar bilan tasdiqlangan chiqimlari (ushbu Kodeksning 333-336-moddalarida nazarda tutilgan hollarda esa zararlar) xarajatlar deb e’tirof etiladi.

Jumladan professor Urazov K.B. Xarajat deganda, hisobot davrida korxona aktivlarining kamayishi yoki majburiyatlarning ko‘payishi tushuniladi[61].

Xarajat – bu mahsulotni ishlab chiqarish, tovarlarni sotish va xizmatlar ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lgan sarflarning puldagi ifodasidir[62], boshqacha qilib aytganda ko‘zlangan maqsadga erishish uchun amalga oshirilgan sarflarning puldagi ifodasidir.

Yuqoridagilarni inobatga olib biz o‘zimizning mualliflik yondashuvimizni taklif qildik: **Xarajatlar – bu xo‘jalik yurituvchi sub’ektning daromad olish jarayonida yoki faoliyatni ta’minlash maqsadida amalga oshiriladigan, hisob yuritish prinsiplariga muvofiq aktivlarning kamayishi yoki majburiyatlarning oshishi natijasida yuzaga kelgan, kelgusida iqtisodiy nafning pasayishiga olib keluvchi va kapitalning egalariga taqsimlanmaydigan kamayish sifatida e’tirof etiladigan iqtisodiy ko‘rsatkichdir.**

Xarajatlar sarflardan farqli ravishda iqtisodiy nafning bevosita kamayishini aks ettiradi; sarflar esa kelgusida naf berishi kutilayotgan resurslar qiymati bo‘lib, iqtisodiy naf daromad bilan bog‘langan davrda xarajatga aylanadi.

Taklif etilgan yangi ta’rif xarajatlarni iqtisodiy nafning pasayishi, aktivlarning kamayishi yoki majburiyatlarning oshishi hamda daromad olish jarayoni bilan bevosita sababiy bog‘liqlik asosida yoritib, sarflardan farqlash, MHXS prinsiplari, kapital egalariga taqsimlanmaydigan kamayish mezonlarini birlashtirgani uchun ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan eng to‘liq va izchil talqin hisoblanadi.

Sug‘urta tashkilotlari o‘z faoliyatini amalga oshirishi uchun ma’lum darajada xarajatlar qiladi, bu xarajatlarni ob’ekt sifatida, boshqaruv maqsadida, buxgalteriya hisobi nuqtayi nazaridan va rejalashtirish hamda boshqa nazariy maqsadlarga ko‘ra turlicha tavsiflash mumkin.

Sug‘urta tashkilotlari xarajatlari ob’ekt sifatida tavsiflanganda, ularni tavsiflash mamlakatimizning amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Chunonchi, bunday qonun xujjatlariga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasing 1999-yil 5-fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Mahsulot (ish, xizmat) larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom, Adliya vazirligi tomonidan 2005 yil 18 oktyabr 1517-son bilan ro‘yxatga olingan, Moliya vazirligining 2005 yil 20 iyuldagi 65-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Sug‘urta

[61]К.Б.Уразов Бухгалтерия ҳисоби ва аудит. Т.: “Ўқитувчи”, 2004.
[62]Ҳ.Н.Мусаев Аудит. Т.: “Молия”, 2003.

tashkilotlari tomonidan xarajatlar tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida”gi Nizom[63] va 21-son BHMS misol bo‘ladi.



1-rasm.Sug‘urta tashkiloti xarajatlarining turlari va ularning tasniflanishi[64]

Sug‘urta tashkiloti xarajatlarining tarkibi ham xilma-xildir (1-rasm).

Quyidagi shartlar bajarilgan taqdirda xarajatlar buxgalteriya hisobida tan olinadi:

- xarajat muayyan shartnomaga, qonunchilik va me’yoriy-huquqiy hujjatlar talablariga, tadbirkorlik odatlariga muvofiq amalga oshirilsa;
- xarajatlarda miqdori aniqlanishi mumkin bo‘lsa;
- muayyan bitim korxonaning iqtisodiy foydasining kamayishiga olib kelishiga ishonch bo‘lsa. Tashkilot aktivni topshirganida yoki aktivni o‘tkazishda

[63] https://lex.uz/uz/docs/-7062672?ONDATE=14.08.2024%2000
[64] Муллиф ишланмаси

noaniqlik bo‘lmasa, muayyan bitim korxonaning iqtisodiy foydasining kamayishiga olib kelishi aniq.

Agar yuqorida ko‘rsatilgan shartlardan kamida bittasi tashkilot tomonidan qilingan har qanday xarajatlarga nisbatan bajarilmasa, debitorlik qarzlari tashkilotning buxgalteriya hisobida tan olinadi.

Amortizatsiya amortizatsiya qilinadigan aktivlarning qiymati, foydali xizmat muddati va tashkilot tomonidan qabul qilingan amortizatsiya usullaridan kelib chiqqan holda aniqlangan amortizatsiya to‘lovlari miqdoriga asoslangan xarajat sifatida tan olinadi.

Xarajatlar korxonalarda tushumlarni kelib tushishi, boshqa daromadlarni olish niyatidan qatiy nazar buxgalteriya hisobida tan olinishi kerak.

Xarajatlar pul mablag‘larini haqiqiy to‘lash vaqtidan va amalga oshirishning boshqa shakllaridan qat’i nazar (xo‘jalik faoliyati faktlarining vaqtincha aniqligini hisobga olgan holda) ular sodir bo‘lgan hisobot davrida tan olinadi.

Agar buxgalteriya hisobining soddalashtirilgan usullarini, shu jumladan soddalashtirilgan buxgalteriya (moliyaviy) hisobotlarini qo‘llash huquqiga yega bo‘lgan tashkilot mahsulot va tovarlarni sotishdan tushgan daromadni yetkazib berilgan mahsulotlarga yegalik qilish, undan foydalanish va ularni tasarruf yetish huquqi sifatida tan olish tartibini qabul qilgan bo‘lsa, sotilgan tovarlar, bajarilgan ishlar, ko‘rsatilgan xizmatlar xizmatga o‘tkaziladi va pul mablag‘lari va boshqa to‘lov shakllari olingandan so‘ng, xarajatlar qarz to‘langanidan keyin tan olinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abduraimova M.A.Sug‘urta tashkilotlarida moliyaviy xisobotini tuzish va auditorlik tekshiruvidan o‘tkazish tartibini takomillashtirish. Iktisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati.T.: 2020 y. 34 bet.
2. Abdusalomova, N. B. (2024). Sug’urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida takomillashtirish. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, *4*(05), 83-90.
3. Mignolet J., Van der Meulen S. Accounting for insurance contracts: Current practice and future challenges under IFRS 17. – Brussels : European Accounting Association, 2015. – 32 p.
4. Trueman B. Financial reporting and performance measurement in insurance companies. – London : Routledge, 2018. – 284 p.
5. Swiss Re Institute. World insurance: navigating reinsurance and risk costs. – Zurich : Swiss Re Institute, 2021. – 45 p.
6. Munich Re. Reinsurance accounting and expense management: global perspectives. – Munich :Munich Re Group, 2019. – 38 p.
7. Vaughan E. J., Vaughan T. *Fundamentals of Risk and Insurance*. – 11th ed. – Hoboken : Wiley, 2014.

Тўлқин Исматулло ўғли Яхяев		
Сысоева Маргарита Сергеевна, Борисова Полина Сергеевна	МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ОЦЕНКЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ КОМПАНИЕЙ НА ОСНОВЕ АНАЛИЗА ДЕНЕЖНЫХ ПОТОКОВ	201
Уразов Комил Бахрамович, Умарова Шахноза Келдиёр қизи	КОРХОНАЛАР МОЛИЯВИЙ ФАОЛИЯТИНИ ИФОДАЛОВЧИ КЎРСАТКИЧЛАРНИ МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТ ШАКЛЛАРИДА АКС ЭТТИРИШ ВА ОЧИҚЛАШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	209
Рафеев Д.Р., Усмонова Н.У.	СИСТЕМЫ НЕПРЕРЫВНОГО СКЛАДСКОГО УЧЕТА	214
Urazov Komil Baxramovich, Abdurasulov Jamshidbek Axmad o‘g‘li	QAYTA TASHKIL ETISH JARAYONLARINING BUXGALTERIYA HISOBI VA HISOBOT METODOLOGIYASI	218
U.A.Shirinov	XARAJATLAR VA DAROMADLARNI SEGMENTLAR KESIMIDA TO‘G‘RI GURUHLASH VA AJRATISH METODIKASI	224
Raximov Xoshim Amirkulovich	SUG‘URTA XIZMATLARINI KO‘RSATUVCHI SUBYEKTLARDA XARAJATLARNI HISOB OBYEKTI SIFATIDAGI TASNIFI VA TAVSIFI	230
Urazov Komil Baxramovich, Raximov Xoshim Amirkulovich	BIRGALIKDA SUG‘URTA OPERATSIYALARI VA QAYTA SUG‘URTA BO‘YICHA XARAJATLARNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	236
Юлдашова Н.З.	ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ УСЛУГ ЗА СЧЁТ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ	241
Shaynazarov Ravshan Mamayusubovich	MINTAQADA CHAKANA SAVDO AYLANMASIGA IMPORT MAHSULOTLAR HAJMINING TA’SIRINI KO’P OMILLI REGRESSIYA MODELI ASOSIDA BAHOLASH	246
	ASSESSMENT OF THE DEVELOPMENT OF THE PROCESSING	251